

MUSIQA MASHG'ULOTLARI ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MUSIQIY SAVODINI SHAKLLANTIRISH

E'zozxon Qobilova

Qo'qon davlat universiteti professori

Annotatsiya; Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy savodini shakllantirishda musiqa rahbarining pedagogik faoliyati, uslubi yondashuvlari va tarbiyaviy ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Musiqiy savodxonlik bolalarning eshitish, ritmni anglash, nota va ohanglarni farqlash, ijodiy fikrlash, emotsional ifoda kabi muhim qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Maqolada musiqa mashg'ulotarining tuzilmasi, savodni o'rgatishning o'yinli va interaktiv metodlari, bolalar uchun eng qulay yondashuvlar yoritilgan. Musiqa rahbarining didaktik o'yinlar, qo'shiqlar, vizual va audio vositalar orqali savodni o'rgatishi bolalarning intellektual, estetik va ijtimoiy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. Yakuniy xulosalarda esa musiqiy savodxonlikni rivojlantirishda tizimli yondashuv va rahbarning kasbiy mahorati asosiy omil ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar; tafakkur, emotsional, musiqa o'quvi, musiqaviy did, improvizatsiya, musiqa savodi, musiqa tinglash.ta'lim, tarbiya,ijro maxorati,ovoz tarbiyasi, , musiqa darsi, ma'naviyat, milliy qadriyat, san'at, qo'shiq.kuylash texnikasi, musiqiy estetik tarbiya.

Аннотация: В данной статье проводится глубокий анализ педагогической деятельности музыкального руководителя в формировании музыкальной грамотности у детей дошкольного возраста, а также его методических подходов и воспитательного воздействия. Музыкальная грамотность является важным средством развития таких способностей детей, как слуховое восприятие, чувство ритма, различение нот и мелодий,

творческое мышление и эмоциональная выразительность. В статье раскрыта структура музыкальных занятий, игровые и интерактивные методы обучения музыкальной грамоте, а также наиболее эффективные подходы для детей дошкольного возраста. Обосновано, что использование музыкальным руководителем дидактических игр, песен, визуальных и аудиосредств положительно влияет на интеллектуальное, эстетическое и социальное развитие ребёнка. В заключении подчёркивается, что системный подход и профессиональное мастерство педагога являются ключевыми факторами в развитии музыкальной грамотности.

Ключевые слова: мышление, эмоциональность, музыкальное обучение, музыкальный вкус, импровизация, музыкальная грамотность, музыкальное восприятие, образование, воспитание, исполнительское мастерство, вокальная подготовка, музыкальный урок, духовность, национальные ценности, искусство, песня, техника пения, музыкально-эстетическое воспитание.

Annotation: This article provides an in-depth analysis of the pedagogical activity of a music teacher in developing musical literacy among preschool children, focusing on methodological approaches and educational influences. Musical literacy plays a crucial role in developing children's abilities such as auditory perception, rhythm recognition, distinguishing notes and melodies, creative thinking, and emotional expression. The article highlights the structure of music classes, playful and interactive methods of teaching musical literacy, and the most effective approaches for young learners. It is substantiated that the use of didactic games, songs, and visual and audio materials by the music teacher positively contributes to children's intellectual, aesthetic, and social development. The conclusion emphasizes that a systematic approach and the teacher's professional competence are key factors in developing musical literacy.

Keywords: thinking, emotional expression, musical training, musical taste, improvisation, musical literacy, listening to music, education, upbringing,

performance skills, voice training, music lesson, spirituality, national values, art, song, singing technique, musical and aesthetic education.

KIRISH

Musika inson hissiyotiga kuchli ta'sir kursatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va goyaviy-axloqiy tarbiyalashning muhim vositasidir. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nosir al-Forobiy «Bu fan tanning sogligi uchun foydalidir», degan edi. Bobomiz Shayx Sa'diy aytgan edi: «Musika odam ruhining yo'ldoshidir». Musika insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotni faol rivojlantiruvchi vositadir. Inson musika bilan ona allasi orqali tanishib, umrbod musiqadan zavq topadi va madad oladi. Musika inson ruhiyatining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Musiqadan turli ozuqa olish uchun inson yuksak madaniyatli, sof qalb egasi, go'zallikni his eta oladigan, o'z kasbiga, ona Vataniga mehr qo'ygan bo'lishi kerak. Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan musika madaniyatini tarbiyalash, musika tarbiyasining bosh maqsadi bo'lib turadi. Maktabgacha ta'lim - uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bosqichi ekan, demak, ta'lim tizimini yanada rivojlantirishni aynan maktabgacha ta'limdan boshlash lozimligi ko'p bora uqtirilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391- son «Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida»¹ gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq ko'plab samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim tashkilotlari yangidan rekonstruksiya qilindi, xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari qurildi, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlandi, ta'lim-tarbiya berish jarayoni jadallashdi, yangi o'quv dasturlari ishlab chiqildi, maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilish samaradorligi oshirildi. Buning hammasi kelajak avlodning yaxshi ta'lim tarbiya olishi uchun.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning musiqiy didini shakllantirishda musiqani ongli ravishda idrok etish ko'zda tutiladi. MTT larda olib boriladigan

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.05.2019 yildagi 391-son

barcha musiqiytarbiyaviy ishlar bolalarda bog'cha yoshidan boshlab olijanob fazilatлами shakllantirishga qaratilgan. Bolalar bog'chalarida am alga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk, barkamol inson bo'lib voyaga yetishishida xizmat qiladi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida kichkmtoylar hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradilar. Ular yoshiga mos musiqiy asarlar tarbiyalanuvchilarda unutilmas taassurotlar qoldiradi, ma'naviy dunyosini boyitadi. Bolalar bog'chasida amalga oshiriladigan mehnat, hisob, atrofimizdagi olam kabi konkret mashg'ulotlarda bolalarning abstrakt flkrlash, mantiqiy xotira kuchi kabi qobiliyatlari o'sib borsa, musiqa mashg'ulotlarida obrazli flkrlashi, nutq madaniyati, musiqiy uquvi, go'zallikni his eta olish qobiliyati rivojlanib boradi. Turli uslublardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqiy mashg'ulot kichkintoylarda badiiy nafosat zavqini uyg'otadi, musiqaga qiziqishini o'stiradi. Musiqa mashg'ulotlarini ilmiv metodik jihatdan har tomonlama takomillashtirib, zamon talabiga mos ravishda olib borish bugungi kun bo'lajak musiqa rahbarlari oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Oddiy musiqa asboblaridan foydalanishni o'rgatish (masalan, doira, pianino, rubob, gitara). Oson kuylarni ijro etish orqali musiqa madaniyatini singdirish. Bolalar orkestri yoki ansambllarini shakllantirish. Musiqiy sahna chiqishlariga tayyorlash. Turli bayram va tadbirlarga musiqiy chiqishlarni tayyorlash. Sahna madaniyatini o'rgatish. Jamoa bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish. dan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Musiqaviy qabul qilish aqliy jarayon bilan boliq, ya'ni diqqatni, kuzatuvchanlikni anglashni talab qiladi. Bolalar musiqa asarining ijrosini eshitadilar, tovushlarning eshitalishi turlarini taqqoslaydilar, badiiy obrazlarning xarakterli jihatlarini, asarning tuzilishini aniqlaydilar. Musiqaviy asar ijro etilgandan so'ng, bolalar tarbiyachining savollariga javob beradilar, asarning umumiy xarakterini aniqlaydilar, ularning so'zlariga, mazmuniga e'tibor beradilar. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun musiqiy savodxonlikni shakllantirish – ularning estetik didini, eshitish qobiliyatini, ritmik sezgilarini, xotirasini va ijodiy

fikrlashini rivojlantiruvchi muhim bosqichdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu jarayonni samarali tashkil etishda musiqa rahbari yetakchi rol o'ynaydi.

1. **R.A. Raxmonov. “Musiqa tarbiyasi asoslari”** kitobda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan musiqiy mashg'ulotlar turlari, ularni o'qitishda qo'llaniladigan metodikalar ko'rsatib o'tilgan. Muallif musiqa rahbarining o'rnini chuqur tahlil qiladi.

2. **P.Yo'ldoshevaning “Maktab repertuari”** ushbu uslubiy qo'llanma bolalarga nota o'qitish, musiqa tinglash madaniyati va cholg'u asboblarni tanitish kabi savodiy yondashuvlarni ochib beradi.

3. **R.Odilovning “Hushnavo milli cholg'ularimiz”** ushbu uslubiy qo'llanmada musiqa orqali bolaning psixik rivoji, emotsional dunyosini kengaytirish, didini o'stirish bo'yicha muhim fikrlar bayon etilgan. Taxlillar quyidagicha o'tkaziladi;

1. **Nazariy tahlil:** Ilmiy-texnik va pedagogik adabiyotlarni o'rganish, ilg'or tajribalarni tahlil qilish.

2. **Kuzatish (observation):** Musiqa mashg'ulotlarida bolalarning ishtiroki va musiqiy faoliyatini bevosita kuzatish.

3. **Eksperiment (tajriba):** Musiqa darslariga innovatsion yondashuvlar (interaktiv metodlar, didaktik o'yinlar)ni joriy etish va natijalarni solishtirish.

4. **Suhbat va so'rovnoma:** Musiqa rahbarlari, tarbiyachilar va ota-onalar bilan suhbatlar o'tkazish orqali ularning fikrlarini o'rganish.

5. **Statistik tahlil:** Olingan natijalarni tizimli tarzda tahlil qilish va xulosalar chiqarish.

Adabiyotlar asosida quyidagi tavsiyalar berib o'tamiz;

1. Ovoz balandligi va nota nomlarini eshitish orqali o'rgatish usul:

- Bolaga "do-re-mi" kabi notalarni kuylab eshittiring.
- Har bir notaga qo'l ishorasi bilan javob berishini so'rang (masalan, “do” — past qo'l, “mi” — yuqori).

- Har bir notani maxsus rang bilan belgilang (vizual yodlash uchun).

foйда : Eshitish, ranglar va harakatlar orqali tez esda qoladi.

2. musiqa savodini ritm asosida qarsak va harakat bilan o'rgatish usul:

- Oddiy she'rga asoslangan ritm: “Qo'llarim chapak, oyoqlarim tap-tap!”

- Har xil tezlikda (tez/sekin) qarsak chalish, bolalarni takrorlatish.

- Ritm kartochkalari: ritmik shakllarni urish orqali tushunish.

foйда: Bolalar tanasi bilan his qiladi va musiqa savodini oson anglaydi.

3. Didaktik o'yinlar orqali savod o'rgatish usul:

- “Nota kim bo'ldi?” – Har bir bola bir nota nomi bo'ladi, navbat bilan chaqiriladi.

- “Rangli nota” – Ranglar bilan kodlangan notalar orqali yodlash.

- “Keling, nota chalaylik” – oddiy metallofon yoki bolalar pianinolarida chalinadigan ohanglar.

foйда: Bolalar o'yin davomida notani o'zlashtirib, eslab qoladi.

4. Qo'shiqlar orqali o'rgatish usul:

- “Do-re-mi” qo'shig'i, “Nota sayohati”, “Ritm qahramonlari” kabi o'quv qo'shiqlari.

- Qo'shiqning ichida musiqiy belgi va tushunchalar yashiringan bo'ladi (masalan, “Fa - farishta kelar do'st izlab”).

foйда: Musiqa orqali o'rgatish esda qolarli va qiziqarli bo'ladi.

5. Musiqiy kartochkalar va illyustratsiyalar usul:

- Har bir nota belgisi uchun alohida rasm (masalan, “Do” — do'ppi, “Re” — reshka).

- Bolalar bu kartochkalarni mos qo'shiq bilan bog'laydi.

- Piktogrammalar orqali dinamikani (past–baland, sekin–tez) tushunish.

Foyda: Vizual yondashuv maktabgacha yoshdagilar uchun ayni muddaobo'ladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa rahbarining faoliyati bolalarning musiqiy savodini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Olib borilgan kuzatishlar, tajribaviy darslar va suhbatlar shuni ko'rsatdiki, musiqa rahbarining kasbiy salohiyati, pedagogik mahorati, metodik yondashuvlari musiqiy savodxonlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Muhokamalar shuni tasdiqladiki, musiqa rahbarining quyidagi jihatlari bolalarning musiqiy rivojlanishida ijobiy natija beradi:

1. **Musiqa asarlarining tanlanishi va ularni to'g'ri tushuntira olishi** – bolalar notalarni eshitish va tanib olish, ohanglarni ajrata olishga o'rganadi.
2. **Cholg'u asboblariidan foydalanish** – an'anaviy va zamonaviy cholg'ularni bolalarga tanishtirish orqali ularning musiqiy dunyoqarashi kengayadi.
3. **Didaktik o'yinlar va interaktiv metodlar qo'llanilishi** – bolalarda musiqaga qiziqish, eshitish, takrorlash va ritmni his qilish qobiliyatini rivojlantiradi.
4. **Tashkiliy pedagogik yondashuvlar** – har bir bolaning individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda yondashuvlar orqali musiqiy savod o'zlashtiriladi.

Interaktiv darslar (masalan, nota o'yinlari, ritmik harakatlar, musiqa orqali hikoya qilish) orqali musiqiy savodxonlik elementlari (nota eshitish, ritmni tushunish, ohangni ajrata olish)da sezilarli o'sish kuzatildi. Sinfdagi bolalar nisbatan ko'proq ijobiy natijalarga erishdi. Shuningdek, musiqa rahbari bolaning emotsional holatini musiqiy vositalar orqali ijobiy tomonga o'zgartirishi, nutq, xotira va diqqatni rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlanib, bu jarayonda

o'qituvchining psixologik yondashuvi ham muhim ekani ta'kidlandi. **Nega aynan asosiy qismda musiqa savodi o'tiladi?**

- Bolalar bu vaqtda **eng faol va e'tiborli** bo'ladi.
- O'rgatilayotgan **teoretik- nazariy tushunchalarni amaliy mashqlar bilan mustahkamlash** imkoni bo'ladi.
- O'yin bilan uyg'unlashtirib berilsa, musiqiy savod **zo'riqmasdan esda qoladi.**

Tavsiya:

- 4–6 yoshli bolalarga savodni **o'yinlar, illyustratsiyalar, she'r va harakatlar orqali** berish samarali bo'ladi.

Masalan:

- "Do–re–mi" o'yinida qo'l bilan ko'rsatish
- Ritmni qo'l chalish bilan o'rgatish
- Qiziqarli savodli qo'shiq matnlari orqali tushuncha berish

Natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Musiqa rahbari bolalarning musiqiy qobiliyatlarini shakllantirishda markaziy figura sifatida faoliyat yuritadi;
- Musiqa mashg'ulotlariga yangicha yondashuvlar (didaktik o'yinlar, ijodiy topshiriqlar, vizual audio vositalar) joriy etilishi natijasida musiqiy savod tezroq shakllanadi;
- Pedagogning ovoza, harakat va ifoda bilan ishlash uslublari bolaning musiqaga bo'lgan munosabatini chuqurlashtiradi;
- Individual yondashuvlar va differensial metodlar har bir bolaning rivojlanish darajasiga mos ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga **musiqiy savodxonlikni o'rgatish** nafaqat musiqa darslarida, balki ularning umumiy rivojlanishida ham **ijtimoiy, hissiy va intellektual jihatdan juda katta ijobiy ta'sir** ko'rsatadi.

Quyida musiqiy savod o'rgatishning **asosiy ijobiy ta'sirlarini** ko'rsatib o'taman:

1. Eshitish va e'tibor qobiliyatini rivojlantiradi

- Bolalar notalarni, ritmni, ohanglarni tinglash orqali **farqlash, eslab qolish** qobiliyatini mashq qiladi.
- Bu **diqqatni jamlash, eshituv orqali o'rganish** ko'nikmasini kuchaytiradi.

2. Aqliy rivojlanishga xizmat qiladi

- Nota o'qish, ritmik shakllarni tushunish - **matematika va tilga tayyorlovchi mantiqiy faoliyat** hisoblanadi.
- Musiqiy belgilarni tushunish orqali **abstrakt fikrlash** rivojlanadi.

3. Ijodkorlik va tasavvur kuchayadi

- Ohanglar bilan ishlash, yangi ritmlar yaratish orqali bola o'z fikrini **musiqa orqali ifodalashga** o'rganadi.
- Bu esa **ijodiy fikrlash, musiqiy obraz yaratish** salohiyatini oshiradi.

4. Xotira va tafakkurni rivojlantiradi

- Notalarni yodlash, musiqiy parchalarning shaklini eslab qolish orqali **qisqa va uzoq muddatli xotira kuchayadi.**
- Bu boshqa fanlar (til, matematika)ni o'zlashtirishga ham ijobiy ta'sir qiladi.

5. Nutq va talaffuzga ijobiy ta'sir ko'rsatadi

- Ritmik mashqlar, qo'shiq kuylash orqali **artikulyatsiya** yaxshilanadi, talaffuz aniqroq bo'ladi.
- Bu ayniqsa **nutqiy muammolari bo'lgan** bolalar uchun foydalidir.

6. Jamoada ishlash, muloqot madaniyatini shakllantiradi

- Ansamblda kuylash, birgalikda ritmik mashqlar bajarish - **hamkorlik, navbat kutish, birga ishlashni** o'rgatadi.
- Bu ijtimoiy faollik va **do'stlik hissini rivojlantiradi.**

7. Emotsional barqarorlikni oshiradi

- Musiqa orqali bola o'z hissiyotlarini ifoda eta oladi: xursandchilik, g'am, hayrat...

- Bu esa **hissiy yengillik** bo'lishiga xizmat qiladi, stressni kamaytiradi.

Musiqiy savod o'rgatish — bu nafaqat nota yoki ritmni o'rgatish, balki **bolaning intellektual, hissiy, ijtimoiy va estetik** qirralarini bir vaqtda rivojlantiruvchi vositadir.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa darslari orqali bolalarning musiqiy savodini shakllantirish – ularning shaxsiy, estetik, aqliy va hissiy rivojiga bevosita ta'sir etuvchi muhim pedagogik jarayon hisoblanadi. Tadqiqotlar va kuzatuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, bu jarayonda musiqa rahbarining faoliyati markaziy o'rinni egallaydi. Musiqa rahbari – nafaqat bilim beruvchi, balki bolani musiqa olamiga yetaklovchi, eshitish madaniyatini shakllantiruvchi, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi tarbiyachidir. U tomonidan puxta tashkil etilgan mashg'ulotlar, to'g'ri tanlangan metodik yondashuvlar, didaktik o'yinlar, vizual va audio vositalardan foydalanish orqali bolalarda nota, ritm, tempo, dinamikani anglash, musiqa belgilarini idrok qilish kabi savodiy ko'nikmalar shakllanadi. Tahlillardan ma'lum bo'ldiki, musiqiy savodxonlik bolalarda eshitish, diqqat, xotira, harakat muvofiqligi, ijodkorlik, nutq va emotsional barqarorlikni rivojlantirishda katta o'rin tutadi. Ayniqsa, o'yin orqali musiqiy tushunchalarni berish, harakatlar bilan birga nota va ritmni o'rgatish, qo'shiq va cholg'u orqali ifodani kuchaytirish – maktabgacha yoshdagi bolalar uchun eng samarali usullardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, bolalarning musiqiy savodini o'rgatishda ularning yoshiga mos yondashuvlar, individual qobiliyatlarni hisobga olish, har bir bola bilan alohida ishlash – pedagogik mahoratni talab qiladi. Musiqa rahbarining bu boradagi faoliyati faqat dars bilan cheklanmasdan, bolalarning ichki dunyosiga kirib borish, ularni rag'batlantirish va musiqaga bo'lgan muhabbatni uyg'otish orqali samarali natijalarga olib keladi. Xulosa qilib aytganda, musiqiy savodxonlikni shakllantirish maktabgacha ta'limning ajralmas qismi bo'lib, u bolaning shaxs sifatida har tomonlama barkamol rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonning muvaffaqiyati esa to'g'ridan-to'g'ri musiqa

rahbarining bilimdonligi, didi, yondashuvi va mehr bilan ishlay olish qobiliyatiga bog'liq. Shunday ekan, musiqiy savod o'rgatish jarayoni doimo yangilanib boruvchi, izchil va bolalar uchun qulay shakllarda tashkil etilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

- 1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13.05.2019 yildagi 391-son qarori,
- 2.Kobilova, Ezozkhon Bakirovna. "Classical music and youth education." Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 12.9 (2022): 126-130.
- 3.Qobilova, E. "FORMING A SENSE OF INTERNATIONALITY IN STUDENTS THROUGH THE TRADITIONAL MUSIC OF AZERBAIJAN." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.10 (2023): 127-132.
- 4.Azizkhonova, M., and E. Qobilova. "IMPORTANCE OF MUSIC EDUCATION IN FORMING YOUTH'S MUSICAL CULTURE AND SPIRITUALITY." Oriental Art and Culture 3.1 (2022): 51-57.
- 5.Kabilova, E. B. "FORMING A SENSE OF PATRIOTISM IN STUDENTS THROUGH THE LIFE AND WORK OF COMPOSER DONI ZAKIROV." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: .429 10.10 (2023): 68-74.
- 6.Qobilova, E. "FORMING A SENSE OF INTERNATIONALITY IN STUDENTS THROUGH THE TRADITIONAL MUSIC OF AZERBAIJAN." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.10 (2023): 127-132.
- 7.QOBILOVA, E'ZOZXON. "Forming A Sense Of Love For The Profession By Teaching Labor Songs To 4th Class Students In Music Culture Lessons." Journal of Positive School Psychology 7.2 (2023).
- 8.E.Qobilova Developing methodological competence in future music teachers. Qo'qon DPI. Scientific Reports 2024 Issue 3, page 722
- 9.E'zozxon Qobilova THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF COOPERATION BETWEEN SCHOOL AND FAMILY IN SHAPING

MUSICAL CULTURE AMONG YOUTH. International Journal of Pedagogics.(ISSN – 2771-2281) VOLUME 04 ISSUE 10 PAGES: 162-166

10. Qobilova, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MUSIC TEACHING IN EDUCATION. QO'QON UNIVERSITY NEWSLETTER, 12, 99–100.
<https://doi.org/10.54613/ku.v12i.999>

11.E.Qobilova.Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish. Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 3-son 722-bet.SAN'ATSHUNOSLIK (MUSIQA, TASVIRIY SAN'AT)Orcid: 0009-0001-1275-3080

12. E.Qobilova .Yoshlarda musiqiy madaniyatni shakllantirishda maktab va oila hamkorligining tarbiyaviy ahamiyati. *Qo 'qon DPI. Ilmiy xabarlar 2024 4-son* 383-bet SAN'ATSHUNOSLIK (MUSIQA, TASVIRIY SAN'AT

